

Atajonov M.M.
Andijon davlat universiteti
geografiya va geoaxborot tizimlari kafedrasi dotsenti

ANDIJON VILOYATI QISHLOQ JOYLAR AGROIQTISODIYOTINING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada Andijon viloyati qishloq tumanlarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hududiy tashkil etilishi hamda rivojlanishining geografik jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, agroiqtisodiyot, ishlab chiqarish, hududiy tarkib, dehqonchilik, chorvachilik, ixtisoslashuv, fermer xo'jaliklari, agrosanoat, dehqon xo'jaliklari.

Atajonov M.M.
Associate Professor, Department of
Geography and geoinformation Systems,
Andijan State University

TERRITORIAL FEATURES OF RURAL AGRO-ECONOMICS IN ANDIJAN REGION

Abstract: This article analyzes the geographical aspects of the territorial organization and development of agricultural production in the rural districts of the Andijan region.

Keywords: agriculture, agro-economics, production, territorial structure, crop production, livestock breeding, specialization, farms, agro-industry, dekhkan (smallholder) farms.

Kirish. Andijon viloyati mamlakatimiz hududiy mehnat taqsimotida qishloq xo'jaligi, xususan paxta va pilla, meva va uzum, sanoatida esa avtomobilsozlik, to'qimachilik, kimyoga ixtisoslashgan. Geografik o'rni, siyosiy geografik vaziyati transchegaraviy bo'lganligi sababli bu yerda transport infratuzilmasi ancha rivojlangan. Bu aloqa yo'llari Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod va O'sh viloyatlari bilan bog'langan.

Viloyat maydoni 4,30 ming kv. km va bu nuqtai nazardan u Sirdaryo viloyatidan (4,28 ming kv. km) oldinda turadi, xolos. Atigi 0,96 foiz respublika maydonini egallagan ushbu hududda 3461,0 ming kishi yoki mamlakat jami aholisining 9,2 foizi yashaydi (aholi soni bo'yicha Farg'ona iqtisodiy rayonida ikkinchi, respublikamizda to'rtinchi o'rinda turadi).

Andijon viloyati hududi va aholisi nisbiy ko'rsatkichlarini taqqoslashning o'zi mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatining asosiy xususiyatlarini yaqqol namoyon qiladi. Bunda, eng avvalo, viloyat demografik sig'iminining juda yuqoriligi, aholining o'ta zich joylashuvi, yer resurslarining tanqisligi ko'zga tashlanadi. Aynan ana shunday vaziyat uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategik yo'nalishlarini belgilab olishni taqozo etadi.

Asosiy qism. Viloyat geografiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, bu yerda qishloq tumanlari "zich" va maydoni dyeyarli bir tekis taqsimlangan. Shunchalik miqdorda, ya'ni 14 ta qishloq tumanlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida ham mavjud, ammo ularning hududi Andijon viloyatidan bir necha marta katta. Viloyatda har bir tumanga atigi 0,31 ming kv. km.dan maydon to'g'ri keladi. Bu mamlakatimiz bo'yicha eng oz ko'rsatkichdir. Bu yerda "geografiylik koeffitsiyyenti" 2,61 ga teng. Boshqacha qilib aytganda, eng katta tuman - Qo'rg'ontepa eng kichik tuman - Buloqboshidan 2,6 marta katta, vaholanki, bunday hududiy tafovutlar boshqa mintaqalarda, hatto qo'shni Namangan va Farg'ona viloyatlarida ham sezilarli darajada ko'proq.

Uncha katta maydonga ega bo'lmagan viloyat respublika hududiy mehnat taqsimotida, milliy iqtisodiyotning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. U mamlakatimizning 6,2 foiz yalpi ichki mahsulotini, 10,2 % sanoat va 10,0 foiz qishloq xo'jalik mahsulotini ta'minlaydi. Viloyatning xo'jaligi industrial-agrar yo'nalishga ega bo'lib, u eng avvalo, mashinasozlik (avtomobilsozlik), to'qimachilik sanoat tarmoqlariga, paxta va pilla yetishtirishga ixtisoslashgan.

Viloyat bo'yicha aholi zichligi 1 kv kmga 804 kishi - bu nafaqat O'zbekistonda, balki butun MDH mamlakatlari bo'yicha ham eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Asaka (1135 kishi), Jalaquduq (1113 kishi) qishloq tumanlari esa zichlik ko'rsatkichiga ko'ra respublikamizda eng oldingi o'rinlarda turadi. Shu bilan birga zichlik Oltinko'l, Paxtaobod tumanlarida ham yuqori, faqat yangi o'zlashtirilgan cho'l hududlarda - Ulug'nor va Bo'stonda u nisbatan past. Biroq ularning ko'rsatkichlari ham mamlakat o'rtacha darajasidan 2-3 marta ziyod.

Andijon viloyatida nafaqat sanoat, balki qishloq xo'jaligi ham yaxshi rivojlangan. Buni viloyat o'zlashtirilgan yerlarning deyarli qolmaganligi ham isbotlab beradi. Agar hududning iqtisodiy salohiyatini aniqlash lozim bo'lsa, yaratilgan yalpi mahsulotni mintaqa maydoniga bo'lib topish mumkin. Albatta, mazkur viloyatda bu ko'rsatkich nihoyatda katta bo'ladi va u hududning iqtisodiy salohiyati yuksakligidan, iqtisodiyotining yuqori zichligidan darak beradi. Shu jihatdan qishloq xo'jaligi ham bu yerda intensiv rivojlanish xususiyatiga ega.

Viloyat qishloq xo'jaligi respublikamizning ayrim mintaqalaridan farq qilib, yalpi agrar mahsulotda dehqonchilikning ulushi kattaligida o'z aksini topadi. Yer tanqisligi sababli fermer xo'jaliklar rivojlanishiga ham imkoniyatlar mintaqada biroz cheklangan. Mulkchilikning bu shakli yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 1/4 qismidan sal ko'prog'ini beradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 46 494,9 mlrd so'mni shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 44 854,9 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi 1 259,0 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi 381,0 mlrd so'mni tashkil qildi.

Tahlillarga ko'ra, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda – 103,1 % ni, o'rmon xo'jaligi – 102,9 %, baliqchilik xo'jaligi – 102,7 % ni tashkil qildi.

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 96,5 foizi – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 2,7 foizi – o'rmon xo'jaligi, 0,8 foizi – baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keldi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushini Andijon viloyati ning hududlari kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulushi Asaka tumani (9,8 %), Jalaquduq tumani (9,3 %), Shahrixon tumani (9,1 %) va Paxtaobod (8,9 %) tumanlarida qayd etildi. Aksincha ulushi kam hududlar sifatida Xonobod shahri (0,5 %),

Andijon shahri (3,2 %), Bo'ston tumani (5,1 %) va Xo'jaobod tumani (4,6 %) keltirib o'tish mumkin.

O'rganilayotgan davrda, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Asaka tumani (4 541 mlrd so'm) va Jalaquduq (4 336,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hudud Xonobod (235,8 mlrd so'm) va Andijon (1 496,2 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Andijon viloyati ko'rsatkichi (103,1 %) dan yuqori o'sish sur'ati Shahrihon tumanida (106,9 %) va aksincha o'sish sur'ati past Qo'rgontepa (100,7 %) tumanlarida kuzatildi. Viloyat ko'rsatkichidan (103,1 %) yuqori o'sish sur'atlari Shahrixon (106,9 %), Baliqchi (104,8 %), Marhamat (104,5 %), Paxtaobod (104,5 %), Jalaquduq (103,7 %) Buloqboshi (102,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Andijon viloyatida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 44 374,9 mlrd so'mni yoki oldingi davrlarga nisbatan 103,1 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 26 103,9 mlrd so'mni (102,7 %), chorvachilik mahsulotlari – 18 271 mlrd so'mni (103,7 %) tashkil qildi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 63,3 foizi - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 32,2 foizi - fermer xo'jaliklariga, 4,5 foizi - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Jami yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Marhamat tumanida (44,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Andijon shahrida (92,6 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Oltinko'l tumanida (75,2 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Xonobod shahrida (0,9 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Bo'ston tumanida (43,3 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xonobod shahrida (0,1 %) kuzatildi.

Viloyatda yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 26 103,9 mlrd so'mni yoki 2023-yilga nisbatan 102,7 % ni, yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida esa dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 58,8 % ni tashkil qildi.

2024-yilda barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 833,7 ming tonna sabzavotlar (2023-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 103,4 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 58,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgan.

Viloyat qishloq xo'jaligi tarkibida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 18 271 mlrd so'mni yoki 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 103,7 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 41,2 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi. Xususan, barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 202,2 ming tonna go'sht (2023-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,8 % ga ko'p) yetishtirildi, 1 119 ming tonna sut (2,7 % ga ko'p) sog'ib olindi, 773,9 mln dona tuxum (3,1 % ga ko'p) yetishtirildi va 21 729,4 tonna baliq (2,7 % ga ko'p) ovlandi.

Barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 202,2 ming tonna go'sht (2023-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,8 % ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 80,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.

Andijon viloyatidagi mavjud barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 773,9 mln dona tuxum (2023-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,1 % ga ko'p) olindi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda,

tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 76,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.

Baliq yetishtirish bo'yicha barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 21 729,4 tonna (2023-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,7 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliqlar umumiy hajmidan 75,4 foizi fermer xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,0 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 3,0 foizi fermer xo'jaliklariga, 1,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga, otlar umumiy sonidan 2,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 0,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga, shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 2,8 foizi fermer xo'jaliklariga, 1,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1177,4 mingga yetdi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylari bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 22,1 mingga (1,9 %) ko'paydi.

Tahlil qilinayotgan davrda yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi. Shundan sigirlarning umumiy bosh soni 408,9 mingga yetdi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylari bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 10,1 ming taga (2,5 %) ko'paydi, jami sigirlarning 2,6 foizi

dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi. Qo'y va echkilarning umumiy bosh soni esa 1583,8 mingtaga yetdi. Mazkur ko'rsatkichni 2023-yilning yanvar-dekabr oylari bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni – 30 mingtaga (1,9 %) ko'paydi va qo'y va echkilarning 92,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keladi.

Viloyatda otlarning umumiy bosh soni 7 481 taga yetib uni 2023-yilning holati bilan taqqoslanganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 80 taga (1,1 %) ko'paydi. Otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 74,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishi kuzaitildi.

2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, parrandalar umumiy bosh soni 10 995,3 mingtaga yetdi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylari bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 111,9 mingtaga (1,0 %) ko'payib, parrandalarning 49,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Xulosa. Kelajakda viloyat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida quyidagi muammolarni hal qilish zarur: qishloq xo'jaligida iqtisodiyot samaradorligini oshirish; qishloq joylar ijtimoiy infrastrukturasi va qishloq sanoatini rivojlantirish; aholi bandligini yaxshilash, mehnat resurslaridan to'la va samarali foydalanish; mintaqa ishlab chiqarish majmuasini yanada takomillashtirish; ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etilishini tartibga solish; yangi o'sish nuqta va markazlarini shakllantirish; Markaziy Farg'ona hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirish; sanoat markazlari va shaharlar ekologiyasini yaxshilash va h.k.

Shuningdek, qishloq tumanlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada kuchaytirish, tutash hududlar bilan integratsiya jarayonlarini rivojlantirish ham maqsadga muvofiqdir. Kelajakda bu yerda o'ziga xos xalqaro iqtisodiy makon yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asian Development Bank. (2022). *Agricultural value chains and rural development in Uzbekistan*. Asian Development Bank.
2. Center for Economic Research and Reforms. (2021). *Socio-economic development of Andijan region over five years*. CERR.
3. Food and Agriculture Organization. (2022). *The state of food and agriculture 2022*. FAO.
4. Mamajonov, M. (2019). Soils of Andijan region and practical value of using them and problems of protection. *Academia Open*, 1(2), 1–8.
5. Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan. (2024). *Statistical bulletin on agricultural production and rural development*. Ministry of Agriculture.
6. Qurbonov, S. (2013). *Kichik hududlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi*. Mumtoz So'z.
7. Qurbonov, S. (2019). *O'zbekiston qishloq tumanlari ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi*. Mumtoz So'z.
8. Qurbonov, S., & Fedorko, V. (2024). *O'zbekiston geografiyasi. II qism: O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi*. Toshkent.
9. Rabiiev, B. B. (2026). Migratsiya sharoitida ayollarning oiladagi ijtimoiy roli va iqtisodiy mas'uliyatining o'zgarishi. *Taraqqiyot Spektri: Ilmiy Jurnal*, 2(5), 323–334.
10. Rabiiev, B. (2024). Socio-economic aspects of women's domestic service migration. In *Academic Research in Modern Science International Scientific Online Conference* (Vol. 10, pp. 30–35).
11. Soliyev, A. S., & Nazarov, M. I. (2009). *O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi)*. Fan va Texnologiya.
12. United Nations Development Programme. (2023). *Rural development and territorial transformation in Central Asia*. UNDP.
13. Andijan Region Statistics Department. (n.d.). Agriculture statistics. Retrieved June 17, 2026, from [Andijan Region Statistics Department](#)
14. Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan. (n.d.). Agriculture statistics. Retrieved June 17, 2026, from [Statistics Agency Agriculture Data](#)
15. Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan. (n.d.). Demography statistics. Retrieved June 17, 2026, from [Statistics Agency Demography Data](#)